

**O‘ZBEKISTONNING SOVET ITTIFOQI TARKIBIDA BO‘LGAN  
DAVRDA IJTIOIY-IQTISODIY MUNOSABATLAR. NAFAQA TIZIMI.  
(1920-1940-YILLAR)**

**Raxmatulloyev Umid**

BuxDu Tarix-(yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha)

Mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Sovet davridagi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haqida gapirganda eng avvalo o‘sha davrdagi va mustaqillik yillarida ushbu mavzu doirasidagi ilmiy ishlarni, kitoblar va adabiyotlarni tog‘ri tahlil qilish kerak bo‘ladi. Buning sababi sovet davri adabiyotlarida respublikaning iqtisodiy ahvoli haqida ko‘plab balandparvoz fikrlar, ma`lumotlar uchraydi. Kommunizm mafkurasini butun dunyoga maqtash maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo‘rttirib ko‘rsatilardi.

Sovet ittifoqida rivojlanishning birinchi besh yilligidan boshlangan kollektivlashtirish, yangi sanoat tarmoqlarining kirib kelishi respublikaning milliy daromadlarining ko‘payishiga sabab bo‘ldi. 1928-yilga kelib O‘zbekistonning daromadi 455,6 million so‘mga yetdi, shundan umumiy sektorning hissasi 148,5 millionni tashkil qildi. Birinchi besh yillikning oxiriga kelganda esa milliy daromad tushumlari 837,8 millionni tashkil qilganligi aytib o‘tiladi.

Yuqoridagi fikrlarga muxolif ravishda birinchi besh yillik (1928-1932) voqealariga boshqa rakursdan qarasak. 1930-yillardan butun ittifoq miqyosida boshlangan kollektivlashtirish siyosati O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining, ayniqsa mayda va o‘rtahol dehqon xo‘jaliklarining tom ma`noda xonavayron bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Qishloqlarda og‘ir vaziyat hukm surdi. Mahalliy xalq oziq-ovqatning yetishmasligi, kambag‘allik, ochlik muhitida yashashga majbur bo‘ldi. Kolxozlarga xohishiy kirmaganlar quloq qilindi, ularning yer-mulklari davlat foydasiga musodara qilindi va kolxoz xo‘jaliklari ixtiyoriga o‘tkazildi.

Sovet ittifoqida kommunizm qurish maqsadida dehqonlarni bu tariqa ezish, bosimlar o‘tkazishning stalincha usuli 1932-1933-yillarda ocharchilik holatlarini olib keldi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra ushbu tashkil qilingan sun‘iy ocharchilik falokati natijasida butunittifoq hududida ochlikdan halok bo‘lgan insonlar soni kamida 7 millionni tashkil qilganligi sovetlarning kommunizm qurish yo‘lida olib borgan repressiya siyosatining yana bir yorqin misoli edi.

Ocharchilik holatlarining 1935-yilga kelibgina biroz yumshashiga erishildi. Bunga sabab fevral oyida qishloq xo‘jaligi arteli tomonidan qabul qilingan yangi

nizom edi. Ushbu nizomga ko'ra qishloq mehnatkashlariga o'zlari uchun tomorqa ajratish va ularning chorva mollariga ega bo'lish huquqlari berilishi kerakligi aytilgandi. Ayni ushbu davrda kolxoz va sovxozlarning soliqlari kamaytirildi, ularni xo'jalik jihatidan qo'llab-quvvatlash maqsadida budjetdan katta miqdordagi mablag'lar ajratildi. Qishloq xo'jaligini yangi texnikalar bilan jihozlash ishlari kuchaytirildi.

Sovet ittifoqida sotsializm qurishning ikkinchi besh yilligida ya'ni 1933-1937-yillarda respublika sanoat va qishloq xo'jaligidagi ishchilarning maoshlari yaxshilanib bordi. Masalan, 1933-yilda respublika xalq xo'jaligi ishchi xizmatchilarining o'rtacha yillik maoshlari 1736 so'm bo'lgan bo'lsa, 1937-yilga kelganda bu ko'rsatkich 2974 so'mga yetdi. Bundan tashqari, sanoatda faoliyat ko'rsatayotgan ishchilarning ish haqlari 171 foizga, qurilish sohasidagilarniki esa 211 foizga oshdi. Shu tariqa sanoatdagi ish haqining o'sishi boshqa sohalardagiga qaraganda ancha tezroq o'sdi. 1930-1934-yillarda respublika xalq xo'jalik tizimida ish haqining yillik o'rtacha o'sish darajasi 38 foiz bo'lgan bo'lsa, sanoatda bu ko'rsatkich 45 foizni tashkil qildi. 1929-yilgi hisobotlarga ko'ra O'zbekistonda ishchi va xizmatchilarning ish haqi fondi 212 million so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 1937-yilda u 1740 million so'mga yetib, deyarli 8 martaga oshganligi aytib o'tiladi.

Aholining yordamga muhtoj bo'lgan qatlamini ijtimoiy qo'llab quvvatlashning yagona yo'li bu nafaqa tizimi edi. Sovet ittifoqidagi nafaqa tizimidan hamma ham foydalana olmagan. Misol uchun 1932-yilgi raqamlarga qaralsa, mazkur yilda tayinlanadigan nafaqaning eng kam miqdori etib 32,9 so'm belgilandi. Amalda esa bu summa insonlar ehtiyojlarini qondirishga deyarli yetmasdi. Bundan tashqari ushbu nafaqa tizimidan dehqon sinfi vakillari foydalanmas edilar. Achinarli tomoni ushbu davrda nafaqa bilan ta'minlashda ko'plab qonun buzilish holatlari uchrab turgan. Birgina 1933-yilni oladigan bo'lsak, mazkur yilda Chiroqchi tumanida 1110, Denovda 4620, Termizda 8425, Shahrisabzda 14648, G'uzorda 84000, Kosonda 5071, Sariosiyo tumanida esa 13000 rubllik nafaqalar aholiga berilmagan va nafaqa oluvchilarning ro'yxatlari umuman tuzilmaganligi sovet hukumatida aholini ijtimoiy-iqtisodiy ta'minlanganlik darajasining qanday abgor ahvolda ekanligini ko'rsatadi.

Respublikada 30-yillarda xususiy xo'jaliklardan olinadigan soliqlar kollektiv xo'jalikka a'zo bo'lgan har bir oiladan olinadigan soliqdan deyarli 10 barobarga ko'p bo'lgan. Quloq xo'jaliklaridan esa 140 barobar ko'p miqdorda soliqlar undirilgan. Aynan quloq ro'yxatiga tushgan xonadonlardan olinadigan soliqlar 1929-1930-yillarga nisbatan 1931-yilda 2,2 martaga oshirildi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, ushbu davrdagi ijtimoiy ahvol va sovet nafaqa tizimida ko‘plab kamchiliklar uchrab turgan, ularni o‘z vaqtida bermaslik oddiy xalqning noroziligiga sabab bo‘lgan. Ushbu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni va uni oddiy xalq uchun ijobiy va salbiy tomonlarini xolis tahlil qilish va ochib berish muhim hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хлопководство Узбекистана за 50 лет. Справочник. Ташкент. 1967. С. 28.
2. Урок даёт история. М. 1989. С. 178.
3. Choriyev Sh.Sh. O‘zbekiston milliy arxiv hujjatlarida O‘zbekiston SSR ijtimoiy-iqtisodiy tarixi (1924-1941-yillar). Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. T. 2024. B. 20.
4. Ўзбекистон ССР Тарихи. III том. Тошкент. Фан. 1971.
5. SHamsutdinov R, Karimov SH. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. Toshkent. SHARQ. 2010. B. 282.